

***Zakirova Gulnora Mirzaliyeva***

*Namangan muhandislik texnologiya*

*instituti “Iqtisodiyot” kafedrası*

*kattao ‘qituvchisi*

*E-mail: [Gulnorazakirova1968@mail.ru](mailto:Gulnorazakirova1968@mail.ru)*

***Аннотация.*** Ushbu maqolada innovatsion salohiyatdan foydalanishning nazariy-uslubiy asoslari tadbiriq etilib, muallif tomonidan “salohiyat” va “innovatsion salohiyat” atamalariga izoh berilgan. Muallif tomonidan sanoat korxonasiining innovatsion salohiyati to‘laqo‘li ob‘yektiv baholash jarayoni, birinchidan, uni tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlar tarkibini aniqlash, ikkinchidan esa, ularga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning ta’sir etish darajasini o‘lchash. Ushbu maqolada amalga oshirayotgan ishlarga muvofiq korxonalarining innovatsion salohiyatini oshirish, mustaqil ish olib borishga intilish undagi ulkan o‘zgarishlarga turtki bo‘ladi. Buning uchun esa innovatsiyani to‘g‘ri tanlash va oqilona boshqarish talab etiladi. Mamlakatimizda joylashgan tadbirkorlik korxonalarining innovatsion salohiyatini boshqarishda uni oqilona tashkil etish, keng ko‘lamli, chuqur iqtisodiy islohotlarni izchil amalga oshirish, turli mulkchilik shaklidagi korxonalar va tashkilotlar uchun alohida ahamiyatga egadir.

***Kalit so‘lar:*** Salohiyat, innovatsion salohiyat, texnologiya, ixtiro, raqobat, ilmiy salohiyat.

***Аннотация.*** В данной статье применены теоретические и методологические основы использования инновационного потенциала, а также объяснены понятия «компетентность» и «инновационный потенциал». Процесс вполне объективной оценки автором инновационного потенциала промышленного предприятия, во-первых, для определения состава основных показателей, его описывающих, во-вторых, уровня влияния влияющих на них факторов о К проведенной работе в данной

*статье повышение инновационного потенциала соответствующих предприятий, стремление к самостоятельной работе станет толчком к огромным изменениям в нем. Для этого необходимо правильно выбрать инновацию и разумно ею распорядиться. В управлении инновационным потенциалом предприятий предпринимательства, расположенных в нашей стране, особое значение имеет его рациональная организация, последовательное проведение масштабных и глубоких экономических реформ, причем для предприятий и организаций с различными формами собственности.*

**Ключевые слова.** *Компетенция, инновационный потенциал, технология, изобретение, конкуренция, научный потенциал.*

**Annotation.** *This article applies the theoretical and methodological foundations of using innovative potential, and also explains the concepts of “competence” and “innovative potential”. The process of a completely objective assessment by the author of the innovative potential of an industrial enterprise, firstly, to determine the composition of the main indicators that describe it, and secondly, the level of influence of the factors influencing them o For the work carried out in this article, increasing the innovative potential of the relevant enterprises, the desire for independent work will be the impetus for huge changes in him. To do this, you need to choose the right innovation and use it wisely. In managing the innovative potential of business enterprises located in our country, its rational organization and consistent implementation of large-scale and deep economic reforms, especially for enterprises and organizations with different forms of ownership, are of particular importance.*

**Keywords:** *Competence, innovative potential, technology, invention, competition, scientific potential*

Bugungi kunda mamlakatimizda o‘zgarishlar davrida iqtisodiyotimizning sifat jihatidan yangi, zamonaviy tarkibiy tuzilmasini shakllantirish, hududlarimizni kompleks rivojlantirish bo‘yicha barcha rejalarimizning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi infratuzilma tarmoqlarini yuksak sur‘atlar bilan rivojlantirishga uzviy bog‘liqdir. Mamlakatimiz

tadbirkorlik korxonalarini modernizatsiyalash yaqin yillarda va kelgusida respublikamizda hal qilinadigan eng ustuvor vazifalardan biridir.

Ushbu ustuvor vazifani ado etish tadbirkorlik korxonalarini oldiga ishlab chiqarish quvvatlarini yanada oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, bozor raqobatlariga bardosh berish, o'z mijozlarini ko'paytirish, shu asosda pirovard natijada olinadigan foydani yanada ko'paytirishga imkon beruvchi innovasion salohiyatni yuksaltirishga hamda u bilan shug'ullanishni zarurat qilib qo'yimoqda.

Respublikamiz Prezidentining O'zbekiston Respublikasining innovasion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora –tadbirlari to'g'risidagi qarori, 06.07.2022 yildagi PQ-307-son qarori korxonalarining innovasion salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan 2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovasion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-165-son [Farmoni](#) ijrosini ta'minlash borasida muhim chora tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Lekin bu borada bir qancha yechilishi lozim bo'lgan masalalar ta'kidlab o'tildi. Jumladan, innovatsiyalar joriy qilingan korxonalar, innovasion texnologiyalar, rasmiylashtirilgan ixtirolar soni pastligi, mahalliy ishlanmalarning tijoratlashtirmaganligi, sohalarga innovasion texnologiyalarni keng joriy qilishda sustkashlikka yo'l qo'yilgani, ilmiy tashkilotlar bilan uzviy hamkorlikni o'rnatilmaganligi, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida mahalliy byudjetdan mablag'lar ajratilmaganligi shular jumlasidandir.

Iqtisodiyotda o'zgarishlar davrida tadbirkorlik korxonalarining innovasion salohiyatini oshirish va keskin raqobat sharoitida har bir korxonalarining muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi, jamoasi, xodimlarning malakasi, bilimi, tajribasi hamda tashabbuskorligiga bog'liq bo'ladi.

Korxonalarining innovasion salohiyatini oshirish bu va boshqa sifatlarni qaror toptirish hamda rivojlantirishga boshqaruvni takomillashtirish hisobiga erishiladi. Korxonalarining innovasion salohiyatini boshqarish strategiyasini ilmiy asosda ishlab chiqishning ahamiyati beqiyosdir.

Ko'p yillik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy o'sishning asosini innovatsion salohiyat: ya'ni ishchilar, mutaxassislar, xizmatchilar, rahbarlar mehnati, malakasi, izlanuvchanligi hamda yangilikka intiluvchanligi tashkil etadi.

“O'zKoji” aksiyadorlik jamiyati xorijiy korxonasi innovatsion faoliyatini iqtisodiy tashhishlash bu amalga oshirishdagi muammolar va «tor joylarni» aniqlash maqsadida, asosan, iqtisodiy usullar, modellar, baholash proseduralari va boshqalardan foydalanib, innovatsion faoliyatni har tomonlama tadqiq qilishdir. Iqtisodiy tashhishlashning maqsadi o'rganilayotgan ob'yektning muammolarini aniqlashdan iborat.

Bu holatda barcha tarafdin o'rganilayotgan tashhishlash ob'yekti bu korxonaning innovatsion faoliyatidir. Muammoning predmeti esa - uni amalga oshirishdagi «zaiflik»lar. Bunday muammolar va «tor joy»larning paydo bo'lish holati muammoviy vaziyat hisoblanadi.

“O'zKoji” aksiyadorlik jamiyati xorijiy korxonasi innovatsion faoliyatni tashhishlash quyidagi tahliliy masalalar kompleksini hal etishga imkoniyat beradi:

- innovatsion faoliyatning korxonaga maqsadlari, vazifalari va strategiyasiga mosligini aniqlash;
- «tor joy»lar, ularni bartaraf etish muammolarini aniqlash;
- muammoli vaziyatlarning hosil bo'lish belgilarini tanib olish;
- bunday vaziyatlarning yuzaga kelish sabablarini tahlil qilish;
- ularning innovatsion faoliyat va, umuman, korxonaga faoliyatining umumiy natijasiga ta'sirini baholash;
- innovatsion faoliyat vazifalarini amalga oshirilishini baholash.

Tadqiqot yakunida ob'yekt holatiga xulosa, ya'ni tashhis qo'yilishi lozim. Iqtisodiy tashhishlash davriylik, tezkorlik, mazmuni, tadqiqotning chuqurligi va qamrab olish kengligi bo'yicha sinflarga bo'linishi mumkin (1 -jadval).

### **1-jadval**

**“O'zKoji” aksiyadorlik jamiyati xorijiy korxonasida iqtisodiy tas'hishlashning sinflanishi**

<b>Sinf belgisi</b>	<b>Iqtisodiy tashhishlash turlari</b>
1	2
1. Davriylik	- lavhali; - permanentli;
2. Tezkorlik	- operativ; - strategik
3. Mazmundorlik	- vazifaviy (jarayonli); - natijalar bo'yicha
4. Tadqiqot chuqurligi	- espress-tashhishlash; - mohiyat bo'yicha tashhishlash;
5. Qamrab olish kengligi	- korxonada darajasida; - bo'linma darajasida; yangilik turi bo'yicha.

**Manba: jadval tadqiqotchi tomonidan tayyorlangan.**

Tashhishlashni ob'yektni tahlil etish jarayonida qo'llash mumkinligi haqida fikrga qarshi emasmiz, albatta, bundan tashqari biz bu fikrga qo'shilamiz ham, lekin uni tahlilning bir yo'nalishi sifatida o'rganish masalasi tortishuvlar uchun asos bo'lishi mumkin. Korxonada tashhishlash o'zining hususiyatlari va mahsus belgilariga ega.

Birinchidan, terminlarning talqinini eslaydigan bo'lsak, yunonchadan tarjima qilinganda - tashhishlash «diagnosis» (ruschadan tashhishlash -diagnostika) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, bu «tanib olish», «aniqlash», «anilisis», ya'ni tahlil (ruschadan tahlil - analiz) bu «bo'linish», «parchalanish» ma'nosini anglatadi. Bundan kelib chiqadiki, tahlilni ma'lum bir murakkab butunni o'rganish maqsadida ham amaliy, ham nazariy faoliyatda amalga oshiriluvchi, turli hil ob'yektlarni ularning tarkibiy qism, yoki taraflariga parchalash sifatida faraz qilish mumkin. Shunday qilib, tahlil jarayonida tashhishlashdan foydalanish haqidagina emas, balki tahlil yordamida tanib olish (tashhishlash) haqida ham so'z yuritish mumkin. Tahlil bilan bir qatorda, tashhishlash vositalarini hosil qiluvchi boshqa uslub va yondoshuvlar "O'zKoji" aksiyadorlik jamiyati xorijiy korxonasida tahlillarning ishonchliligini kafolatlashi mumkin (2 -jadval).

**“O‘zKoji” aksiyadorlik jamiyati xorijiy korxonasi innovatsion faoliyatni iqtisodiy tahlil qilishning uslub va yondoshuvlari**

<b>Yondashuvlar</b>	<b>Uslublar</b>
<ul style="list-style-type: none"><li>- extimolli;</li><li>- dinamik;</li><li>- me‘yoriy;</li><li>- tizimli;</li><li>- vazifaviy;</li><li>- tajribaviy;</li></ul>	<p>1. Axborotni yig‘ish va unga ishlov berish;</p> <ul style="list-style-type: none"><li>- so‘rov;</li><li>- kuzatuv;</li><li>- rasmiy va norasmiy xujjatlarni o‘rganish;</li><li>- statistik ma’lumotnoma va axborotni guruxlash</li><li>- axborot to‘plashning boshqa uslublari.</li></ul> <p>2. Tashxisiy tadqiqot.</p> <ul style="list-style-type: none"><li>- tahlil;</li><li>- iqtisodiy, shu jumladan ekspert baholash;</li><li>- bashorat qilish;</li><li>- modellashtirish;</li><li>- nazorat;</li><li>- monitoring.</li></ul>

**Manba: jadval tadqiqotchi tomonidan tayyorlangan.**

Ikkinchidan, tashhis qo‘yish maqsadi, ob‘yekt faoliyatidagi muammolar, «tor joy»larni aniqlashdan iborat. Uchinchidan, tahlil iatijasi sintez, ya‘ni tahlil tomonidan parchalanib, ko‘rib chiqilgan unsurlarni amalda yoki fikran birlashtirish bilan yakunlanishi lozim. Tashhis natijalarini olish unsurlarni birlashtirilishinigina emas, balki bunday umumlashtirish asosida yechimni qabul qilish, ya‘ni tashhis qo‘yishni talab qiladi.

To‘rtinchidan, tashhislashning alohida hususiyatlaridan biri ob‘yektdagi sababli-natijaviy aloqalarni yuzaga chiqarish, ularning tuzilishi, maqsadga yo‘nalganligi va torligini aniqlashdan iborat.

Beshinchidan, tashhis qo‘yish uchun muammoli vaziyatlarga hos bo‘lgan belgilar va ularning kelib chiqish sabablari ro‘yhati zarur bo‘ladi. “O‘zKoji” aksiyadorlik jamiyati xorijiy korxonasi innovatsion faoliyatini iqtisodiy

tashhislash tarkibi bu tashhislash jarayonini hosil qiluvchi, ketma-ket amalga oshiriluvchi harakatlar yig'indisidir. U etti bosqichdan iborat:

1.Iqtisodiy tashhislashni o'tkazishni tashkil etish va tayyorlash.

2.Iqtisodiy tashhislashning uslubiy ta'minoti.

3.Iqtisodiy tashhislashning axborotoviy ta'minoti.

4.O'rganilayotgan ob'yektni modellashtirish.

5. Tashhisli o'rganish.

6.Iqtisodiy tashhislash natijalaridan foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

7.Tashhislash natijalarini rasmiylashtirish.

Innovatsion salohiyatni harakatga keltiruvchi kuch - bu yangilikka (innovatsiyaga) doimiy intilish va uni joriy qilishdan iboratdir.

Korxonalarining innovatsion salohiyatini oshirish, mustaqil ish olib borishga intilish undagi ulkan o'zgarishlarga turtki bo'ladi. Buning uchun esa innovatsiyani to'g'ri tanlash va oqilona boshqarish talab etiladi. Mamlakatimizda joylashgan tadbirkorlik korxonalarining innovatsion salohiyatini boshqarishda uni oqilona tashkil etish, keng ko'lamli, chuqur iqtisodiy islohotlarni izchil amalga oshirish, turli mulkchilik shaklidagi korxonalar va tashkilotlar uchun alohida ahamiyatga egadir. Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish, iqtisodiyotda birinchi navbatda boshqaruv tizimini takomillashtirishni taqazo etadi.

### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati**

1. Respublikamiz Prezidentining O'zbekiston Respublikasining innavasbon rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora –tadbirlari to'g'risidagi qarori,

2. Babanova.Yu.V. Tashkilotning innavatsiyon salohiyatini baxolash usuli/Yu.v.Babanova, V.P.Gorshenin //SSU xabarnomasi.Investisiyalar va investisiyalarni boshqarish. 2012 №22

3. Горшков Р.К.Инновационно –ресурсный потенциал предприятия: вопросы теории и метадологии. Монография/ Р.К.Горшков.М-Экслибрис-Пресс,2005.102с

4. Кичик бизнес субъектларининг экспорт салоҳиятини оширишда инновацион маркетингдан самарали фойдаланиш: И.А. Бакиева, У.К. Мухторова, Ш.Ш. Файзиев. Монография. – Т.: “Tamaddun” нашриёти 2017 й., 116 бет.
5. Умаров И., Саидкаримова С., Облокулова Ш. Анализ показателей инновационного потенциала предприятий промышленности //Научный электронный ж-л “Экономика и инновационные технологии”. № 4, июль-август, 2015 г.
6. Каххоров А. Инновационный потенциал автомобильно-транспортных предприятий и его оценка// Научный электронный ж-л “Экономика и инновационные технологии”. № 4, июль-август, 2016 г.
7. Рузиев Б.С. Повышение инновационного потенциала в системе высшего образования //Научный электронный журнал “Международные финансы и учет”. №3, июнь, 2017 г.
8. Yusubjanovich, I. A. (2024). O ‘ZBEKISTONDA YASHIL ENERGETIKANI RIVOJLANTIRILISHINING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Science and innovation*, 3(Special Issue 24), 126-129.
9. Yusubjanovich, I. A. (2023). THE ROLE OF INVESTMENT ACTIVITY IN ENSURING ECONOMIC GROWTH. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES* ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 17(11), 22-29.
10. Yusubjanovich, I. A., & Yuldashevna, A. S. (2019). IN TRAINING SPECIALISTS INTEGRAL EDUCATIONAL TECHNOLOGY. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 7(12).
11. Muhamadovich, S. H. (2023). The Importance of a Cluster Approach in the Sustainable Development of Entrepreneurial Favoritism. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 4(10), 17-22.
12. Shahobov, K. (2023, June). Theoretical basis of the cluster approach in ensuring the socio-economic development of society. In *American Institute of Physics Conference Series* (Vol. 2789, No. 1, p. 040059).



13. Shaxobov, X. (2024). Tadbirkorlik subyektlari yer-suv resurslaridan foydalanishining hududiy xususiyatlari.
14. Usmanovich, I. I., Ravshan, A., & Mirzaliyevna, Z. G. (2021). Organizational and economic mechanism of business management based on an integrated active system that ensures the interests of the industry. *NVEO-NATURAL VOLATILES & ESSENTIAL OILS Journal*| NVEO, 10703-10713.
15. Курганов, X. P. (2021). СЕГОДНЯШНЯЯ АКТУАЛЬНОСТЬ И РОЛЬ РАЗВИТИЯ АГРОКЛАСТЕРОВ. *Life Sciences and Agriculture*, (1 (5)), 6-9.
16. Иминов, Т. Н., & Курганов, X. P. (2020). СОВРЕМЕННОЕ ЗНАЧЕНИЕ И РОЛЬ РАЗВИТИЯ АГРОПРОМЫШЛЕННОГО КОМПЛЕКСА. In *Современная наука: перспективы, достижения и инновации* (pp. 70-72).
17. Курганов, X. P. (2021). CURRENT SIGNIFICANCE AND ROLE OF AGROCLUSTER DEVELOPMENT. *Life Sciences and Agriculture*, (1), 6-9.